


– Kelavering qishlog'im sari,
Mehmondo'stdir ularning bari, – deb chorlabdi Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi oqtepalik Shahriniso NURBOBOYEVA

(Gazetamiz muxlisasi bo'lgan bu qizning she'rini kelgusi sonda o'qisiz.)



2007-yil
29-oktabr –
4-noyabr
N:44
(66637)



O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

MAKTABIMIZ «LOCHINI»

Maktabdoshimiz Abdurashid Jo'rayev yaqinda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida «O'zbekiston Madaniyati va san'ati forumi» taqdim etgan qimmatbaho sovg'a va esdalik diplomi bilan taqdirlandi.

Sportning karate turi bilan 9 yoshidan buyon muntazam shug'ullanib kelayotgan Abdurashidning shu kungacha erishgan yutuqlaridan uning ota-onasi ham, ustozlari ham xursand. Karate-do bo'yicha yakka tartibda kumite musobaqalarida 1-o'rinni egallagan maktabimiz chempioni ayni kunlarda murabbiylari – Shuhrat aka Abdurazzoqov va Nurmuhammad aka Amirovdan karatening sir-asrorlarini puxta o'rganmoqda. Hozir Abdurashid qizil, ko'k va yashil belbog' sohibi.

Maktabimiz «lochini»ning qora belbog' sohibi bo'lishiga tilakdoshmiz.

Umida SHARIPOVA,
Toshkent tumanidagi 2-umumta'lim maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi

Kelajak
qanotlari



DUSHANBADAN

CHEMPIONLAR KO'PAYMOQDA

Prezidentimizning «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinganiga 5 yil to'ldi. Shu yillar davomida jamg'arma tomonidan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy sport inshootlari barpo etildi. Ularda yoshlar sportning turli yo'nalishlarida jiddiy shug'ullanib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib, xorij davlatlarida hilpiratmoqda.

YORUG' YUZ BILAN

Hindistonda o'tkazilgan to'rtinchi xalqaro umumarmiya harbiy sport o'yinlarida mamlakatimiz vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Dunyoning 102 davlatidan kelgan sportchilar orasida yurtimiz sharafini himoya qilgan harbiy sportchilarimiz umumjamo'a hisobida yettinchi o'rinni egalladi. Sportchilar esa yurtimizga yorug' yuz bilan qaytishdi.

GASHTI O'ZGACHA

Buxoro viloyati bo'yicha 114 ta maktablarga 5,6 milliard so'mlik mebel ajratildi. Jumladan, Jondor tumanidagi 2-maktab qayta ta'mirdan chiqdi. Sinf xonalari pardoqlanib, mebellar bilan ta'minlandi.

Yorug', ozoda, barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan sinf xonalarda ta'lim-tarbiya olishning gashti o'zgacha, shunday emasmi?!

Xabarlar respublika matbuoti materiallari asosida tayyorlandi

DUSHANBAGACHA

Feruz
SOTVOLDIYEVA, Mirzo
Ulug'bek tumanidagi 35-maktabning 4-
«G» sinf o'quvchisi:

– «Tong yulduzi» gazetasini ham muntazam kuzatib borishga harakat qilaman. Chunki bu gazetada ham bizbop maqolalar ko'p-da.

Muzaffar
SOTVOLDIYEV, shu
maktabning 1-«B» sinf
o'quvchisi:

– Men ham, opam ham gazeta o'qishga qiziqamiz. Garchi bu yil maktabga borgan bo'lsam-da, o'qishni yaxshi bilmaganim uchun opamdan gazetadagi maqolalarni o'qib berishlarini iltimos qilaman. Hademay o'qishni o'rganib olsam, opamga iltimos qilishning hojati qolmaydi va albatta «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlisiga aylanaman.

– Maktabda olgan bilimimni oshirishda menga «Tong yulduzi» yaqindan yordam bermoqda. Shuning uchun ham kelasi yil uchun bir yilga obuna bo'lmoqchiman, – deydi poytaxtimizdagi 17-lingvistik maktabning 4-sinf o'quvchisi Mohinur IBODULLAYEVA.

SOVG'A SHART EMAS

Aziz va sevimli gazetam «Tong yulduzi»! Sen bilan 2007-yilda ham do'st bo'lish niyatida hammadan avval obuna bo'lganman. O'tgan sonda «Siz nima deysiz?» deb nomlangan rasmlı savollarga javob yo'llayapman. Javoblarim uchun sovg'a shart emas.

1. 8 yoshli Nilufar juda yaxshi qiz ekan. O'zidan kattalarga, qo'ni-qo'shnilarga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beryapti. Barakalla, deymen.

2. 9 yoshli Olimjon kattalarni hurmat qilmay, avtobusda ularga joy bermay ketyapti. Olimjon avtobusda kattalarga joy berishini xohlardim.

3. 13 yoshli Anvarga havasim kelyapti. U samolyot yasadi. Men ham katta bo'lsam, chiroyli mashinalar ixtiro qilmoqchiman. Orzuga ayb yo'q-ku.


4. 18 yoshli Ahmadjon juda ko'p shokolad yegani uchun tishi og'rib qolibdi. O'sha shokoladidan do'stlariga ham berganida, zarar qilmas edi. Bundan tashqari, tishida yong'oq chaqqan. Buni ko'rib, «Do'stlar, tishlaringizni asrang» degim keldi. Tish shifokoriga bir yilda 2 marta uchrab turing. Shunda tishlaringizni asrab qolasiz.

Ziyod ABDURAHIMOV,
6-«B» sinf o'quvchisi

«Siz nima deysiz?» rasmlı savollarga javob



QO'G'IRCHOQ



(Hikoya)

Salima tabiatan juda og'ir, bosiq qiz. Birovga ortiqcha so'zlamaydi, boshqalarning ishiga aralashmaydi ham. Tanaffusda bolalar turtib ketishmasin, deb yo'lakning bir chetidan yuradi.

Bir kuni partadoshi Zulayho maktabga chiroyli qo'g'irchoq olib keldi. Katta tanaffusda qizlarga ko'z-ko'z qilib, rosa maqtandi. Salima ham mana shunaqa qo'g'irchoq'i bo'lishini anchadan beri orzu qilib yurardi...

Dars boshlandi. Shu payt Zulayho o'qituvchisidan tashqariga chiqib kelish uchun ruxsat so'radi-da, eshikka yuzlandi. Zulayhoning sumkasidan ko'zlarini katta-katta

ochib, mo'ralab turgan qo'g'irchoqqa ko'zi tushgan Salimaning ichi qiziy boshladi. Shu payt unga ichki bir tuyg'u: «Qo'g'irchoqni bildirmasdan olib qo'y, hech kim ko'rmaydi-ku», derdi. U qanday qilib Zulayhoning sumkasidan qo'g'irchoqni olib o'zining sumkasiga solib qo'yganini bilmay qoldi. O'zicha ich-ichidan quvonar, uyida yangi qo'g'irchoq'ini hammaga ko'z-ko'z qilishi haqida o'ylab, jilmayib qo'yardi. Oyim bilan dadamga nima deymen, o'yladi u ichida. «Sezib qolishsa, meni jazolashadi-ku. Ey, ularga ko'rsatmayman», deb o'yladi va sumkasini og'zini yopib qo'ydi. Darslar tugagach, hamma qizlar Zulayhoning qo'g'irchoq'ini yana bir marta ko'rish uchun yig'ilishdi. Faqatgina Salima, «Uyimda ishlarim bor», deb bahona qilib uyiga jo'nab qoldi. Zulayho sumkasiga qo'lini tiqdi-yu, u yerda qo'g'irchoq'i yo'qligini bilib, birdan yig'lab yubordi. Hamma qizlar hayron bo'lishdi. Zulayho ham, qizlar ham qo'g'irchoqni Salima olgan, deya uning uyiga borishdi. Eshikni buvisi ochdi. Qizlar chuvillashib Salimaning buvisiga bor gapni tushuntirishdi va Salimani chaqirishdi. Salima esa, qo'g'irchoqni ko'rmasdim, deya tondi. Zulayho nima qilarini bilmay dugonasidan kechirim so'rab, uyiga ketdi. Kech tushgach, qo'lida qo'g'irchoq o'ynab o'tirgan nabirasini ko'rgan buvisi:

– Bu haligi dugonang so'rab kelgan qo'g'irchoqmasmi? – deb so'radi. Salima nima deyishni bilmay, dovdirab qoldi.

– Qo'g'irchoqni ertagayoq egasiga olib borib ber, men senga nafaqa pulimdan bundan ham zo'rini olib beraman. Birovning haqqi begonaga tatimaydi, – dedi buvisi. Salima qilgan ishining noto'g'riligini endi tushungandi.

Ertasi kuni u maktabga bordi-da, to'g'ri sinfga kirdi. Qarasa, Zulayho doska artayotgan ekan. Salima sumkasidan qo'g'irchoqni chiqarib:

– Meni kechir, Zulayho, kecha qo'g'irchoq'ingni men olgandim, unga havasim kelgandi-da, – dedi.


Zulayho ham jilmaydi-da: – Uni senga berib yuborardim, ammo dadam tug'ilgan kunimga sovg'a qilganlar-da. Bugun uyimizga bor, senga bir talay qo'g'irchoqlar beraman, – dedi.

Salima dugonasiga rahmat aytib, partasiga o'tirdi. U yelkasini bosib turgan og'ir yukdan xalos bo'lgandek edi. Uyiga borsa, dars stolida kattakon qo'g'irchoq turardi...

Ozoda TURSUNBOYEVA

Yerda yuruvchi va havoda uchuvchi transportlarni aniqlang:

2



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING:

1. Quyidagi gaplarning qaysi biri to'g'ri tuzilgan?

- A) kecha kelmadi maktabga Komil;
- B) o'qituvchimiz dars o'tmadilar bugun;
- D) biz tinchlik tarafdorimiz.

2. «Ur, to'qmoq» ertagi qahramonlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) kampir, Zumrad, chol, sehrgar;
- B) chol, turna, yilqichi, boy;
- D) chol, kampir, boy, tarvuz.


3. Maqolni davom ettiring: «Ish ishtaha ochar...»


- A) dangasa ishdan qochar;
- B) yalqovga ish buyurma;
- D) ketidan o'zing yugur.

4. Tabiat hodisalari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) yomg'ir, qor, toshqin, bo'ron;
- B) zilzila, vulqon, raketa uchirilishi;
- D) qor, oy tutilishi, ixtiro qilish.


Robotlarda uchburchak va to'rtburchak shakllari nechtaligini toping:






Chiq-chiq etib tolmaydi,
Sira ortda qolmaydi.
Shuncha yursa ham, ammo
Uzoqqa ketolmaydi.
Til-zabonsiz bo'lsa ham,
O'zi aqlli juda.
«Chiq-chiq» deya, – umrni
O'tkazma, – der behuda.

SOAT



O'zbekiston farzandiman,
Desam ko'ksim tog' bo'lar.
Bayrog'im o'psam agar,
Qalbm chaman, bog' bo'lar.
Tuprog'ini ko'zga surtib,
Yurt bag'rida yashayman.
Har qatichin g'amimdan,
Asrashga doim shayman.

O'ZBEKISTON FARZANDIMAN




Ozod xalqimning,
Ey, ozod tili!
Tillar buyug'i,
Ey, obod tili!
Xalqimning sha'ni,
G'ururi o'zing.
Yurt fitixori,
Shuuri o'zing.

ONA TILIM

Bog'imizda gullar ko'p,
Ko'rkam, xushbo'y, rang-barang.
Agar bo'lsa shubhangiz,
O'zingiz kelib qarang.

Bog'imizda gullar ko'p,
Namozshomgul, boychchak.
Ammo bunda yo'q biror,
Begona o't-u pechak.

Bog'imizda gullar ko'p,
Baxmal, rayhon, atirgul.
Ularning xush bo'yidan,
Mast bo'lar hatto bulbul.



GULLAR



Matlubabonu Egamberganova Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi 16-o'rta maktabning 8-sinfida tahsil oladi. Yoshligidan she'rlar mashq qiladi. She'rlari «Tong yulduzi», «Nihol», «Xorazm ziyokori», «Xorazm haqiqati» gazetalarida chop etilgan. 2006-yilda «Quyoshli yurt farzandiman» deb nomlangan she'riy kitobi nashrdan chiqdi.

Bugun uning she'rlarini kitobcha holida chop etyapmiz. Bu mitti to'plam ham kitob javoningizdan munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.

DO'STLARIMGA

AYTAR




GAPIM

«Tong yulduzi» – 2007



Bolaligim, seni qiyoslay,
Joshqin oqgan shaffof buloqqa,
Afsus, bir kun shunday dam kelar,
Seni tashlab ketgum yitroqqa.
Unutmasman o'shal onlarni,
Yoshligimdan gongan sho'x damlar:
Siz ham o'sha baxtli chog'larni,
Tez-tez eslab turing, odamlar!

BOLALIK



ONAJONIM

Onajonim, oyim o'zingiz,
Sharqiragan soyim o'zingiz.
Dunyodagi ezguliklarni,
Faqat sizga tilar qizingiz.
O'lsalardan sizga talpinib,
Ko'ksingizga boshim qo'yayin.
Bolalikning gashini surib,
Iliq mehningizga to'yayin.
Qoshimida parvona bo'lib,
O'stiridingiz onajon bizi.
Bir kun kelib ulg'ayib men ham,
Boshg'inamda ko'taray sizni!

BUVAJON

(Marhum Nurillayev
Qo'shnazar ota xotirasiga
bag'ishlayman)

Buvajonim Qo'shnazar,
Mehr-la boqardingiz.
So'zlaringiz purma'no,
Barchaga yoqardingiz.

Ertaroq ketganingiz,
Menga alam qiladi.
Sizni yaxshi ko'rishim,
Uyda hamma biladi.


KITOB O'QISH JON- U DILIM

Kitob o'qish jon-u dilim,
Undan olsam deyman bilim.
A'lo o'qib, inson bo'lay,
Chunki meni kutar elim.

Kitob o'qish jon-u dilim,
Chunki unda bilim lim-lim.
O'qiyversam, ado bo'lmas,
Go'yo qaynar buloq ilm.

Aziz do'stlarimga aytar gapim bor:
Ota-yu onangiz hurmat qilingiz.
Vataning tuprog'in to'liyo aylab,
Uni onangizdek aziz bilingiz.
Kelajak egasi sizlarsiz asli,
Mustaqil va ozod davlat quringiz.
Qay yurtida bo'lmangiz, vatanga qaytib,
Bag'rda yoshlikning gashini suringiz.

DO'STLARIMGA AY TAR GAPIM



Giyohvandlik - asli asr vabosi.
Olar guildek umrin xazon qilgan,
Hayotning aslo qolmas ma'nosi.
Ular-chun muqaddas narsalar yo'qdir,
Giyohvandlik - asli asr vabosi.
Aslo rahm-sharf qilmas hech kimga,
Birgamas, minglarga tatir jalosi.
Yo'ldan adashganlar yo'liqar unga,
Giyohvandlik - asli asr vabosi.
Kattalarga aql o'rgatma demang,
Bu dardning aslida yo'qdir davosi.
Opa-yu akalar, bu yo'lga kimang,
Giyohvandlik - asli asr vabosi.

VABOSI GIYOHVANDLIK - ASR

BO'LAVERSIN BAYRAMLAR

Bo'laversin bayramlar,
Unaversin lolalar.
Har bir bayram kunida,
O'ynab kulsin bolalar.

Do'stlar, hech bir kunimiz,
Bayramlarsiz o'tmasin.
Ko'tarinki kayfiyat,
Hech kimni tark etmasin.

ONAJONIM TABIAT




Erta bahor dalalarni,
Yashil gilam o'raydi.
Jonzotlar uyg'onishib,
Hayrat bilan qaraydi.

Ayiqpolvon kurash tushar,
Jilg'alar sho'x kuylashar.
Bulbullarning qo'shig'i,
Dilga shodlik ulashar.

Jonzotlarni qo'ya turing,
Bolajonlar ham halak.
Qizlar raqsga tushar,
Momom kavlar sumalak.

Gullar chaman ochilar,
Qirlarda unar chechak.
Odamlar bir-biriga,
Ulashadi boychechak.



Menga turmushga chiqib,
Doim yonimda yursin.
Senga taslim bo'lmaymiz, deya
Siparangiz sergak turibdi.
Dushmaning qilichin olib,
O'z ko'ksiga shahd-la uribdi.
To'maris Kir II dan
«O'chim olaman», debdi.
Boshin olib, gon to'la,
Qopga solaman, debdi.
Shu kun g'anim osmoni,
Qora bulutga to'ldi.
Ayovsiz janglardan so'ng,
Yov tomon taslim bo'ldi.
O'tsa hamki ming yillar,
To'maris nomi hamon,
Mardlig-u jasorati,
Bo'ldi tillarda doston.

Qadim o'tgan zamonda,
Massagellar tomonda,
Go'zal, malak bor ekan,
Mardlik unga yor ekan.
Mardlik hech yigitidan,
To'maris jang qilar ekan.
Yoig'iz o'g'li Siparangizni,
Jonidan ham suyarkan.
Yurti g'oyat boy ekan,
Go'zal, so'lim joy ekan.
Xalqi uchun To'maris,
Mishi to'lin oy ekan.
Chiroying ta'rifli,
Kir II ga yetibdi.
Va u jasur ayolga,
Shunday noma bitibdi:
So'z beraman, xalqingga
Qo'limni tekizmayman.
Menga vafo'li yor bo'li,
Hech ziyon yetkazmayman.
To'maris shunday debdi:
— Xalqim boshin egmayman
Senday yovuzga aslo.
Xotin bo'lib tegmayman.
Buni eshitgan podshoh,
Darg'azab bo'ldi chunon.
Siparangizni aldab,
May ichiribdi shu on.
— Borib ayting onangga,
Tezroq shartimga ko'nsin.

TO'MARIS JASORATI

O'ZBEGIM FARZANDLARI

Qizlari dono, zukko,
Saranjom-u sarishta.
Yigitlari alp qomat,
Chaqqondirlar har ishda.
Yurtning har o'g'il-qizi,
Elim, yurtim deb yashar.
Shunday ajib diyorda,
To'ylar qilsak yarashar.



O'ZBEKISTONDIR NOMI

Yurtimizda ko'p millat
Istiqomat qiladi.
Ona O'zbekistonni
Aziz Vatan biladi.

Tili, dini o'zgacha,
Ammo qalbi birdek pok.
Bundayin ajib yurtga
Hecham yo'lolmas nopok.

Bag'ri keng, nurli diyor,
O'zbekistondir oti.
Keng bag'rida barchaning
Baxtli o'tar hayoti.



(Tug'ilib o'sgan qishlog'imga
Bag'ishlayman)
Siyovush avlodi yashar bu elda,
Odamlari marddir, qizlari mohob.
Yo falak, shunchalik nazar solgannu,
Tanti bu elimning har so'zi kitob.
Soyotim, gulshanim, bog'-u bahorim—
Seni men har qancha ta'riflasam ozi!
Dunyoda o'zimni baxtli bilardim,
Munosib farzandim, deyo'sang xolos.
Orzum — hech qachon ko'rmasin zavol,
Seni yashatmoqqa bizlar qildik ahd.
Axir ona uchun bo'ldim ortiq,
Farzandi baxtidan buyukroq-da baxt?!

SOYOTIM

Hoy bulbul, sayroq qush!
Daraxtdan tez pastga tush!
Buncha mayin ovozing,
Dilga xush yogar sozing.
Ko'p o'laslab ketmagin,
Bog'imni tark etmagin.

BULBUL

BAHOR, SENI IZLADIM

Bahor, seni izladim
Zulfiyaning she'ridan.
Jannatmakon o'lkamning
Har bir qarich yeridan.

Bahor, seni izladim,
Nish urgan kurtaklardan.
Bolalikda tinglagan,
Maftunkor ertaklardan.

Bahor, seni izladim,
Qushlarning sho'x sozidan.
Egniga atlas kiygan
Qizginaning nozidan.


Seni izlab go'dakdek,
Varrak ketidan chopdim.
Nihoyat, ko'klam seni
Navro'z olamda topdim.



ILHOM PALLASI

Tun pardasin tortadi asta,
Hammayoqni qoplar qorong'u.
Barcha uxlab yotgan bir palla,
Ko'zlarimga kelmaydi uyqu.

To'lin oyga, samoga boqib,
Birdan o'ychan bo'lib qolaman.
Qo'llarimga qalamim olib,
Sokin tundan ilhom olaman.




Yaxshilarni ko'zidan,
Darov bilib oladi.
Dumini ikkilatib,
Yuvvosh tortib qoladi.



KUCHUGIM BOR...

Kuchugim bor, yoqimtoy,
O'zi juda erkatoy,
Junlari mayin, yumshoq,
Rangli ola-gora, oq.
Koplokn ko'rsa, qunar,
Men bilan birga o'ynar.
Tepib yuborsam agar,
Zunda tutil kelitar.
Shirinlik yegan bola,
O'tib qolsa nogahon,
Kuchugim chopib borb,
Lunjid an yalar shu on.
Notanish odamlarni,
Uyiga yo'l atmas yaqin.
Vajohat-la yugurar,
Deysiz misoli chaqin.

Paytin poylab og'ziga,
Shirinlikdan soladi.
Biroz fursat o'tmasdan,
«Voy, tishim»lab qoladi.
Darsni chala goldirib,
Shifokorga chopadi.
Og'riq qolgach, yeb to'ymas,
Yana kontet topadi.



Behzodbek bugun yana,
Shirinlik yeyar, ana.
Ustoz kirar darsga,
Shirinlik bo'lar pana.

YEB TO'YMAS

SHIFOKOR

Qalbidek pok oq xalatga,
Dog' tekkizmay kiyadi u.
Biror kishi bemor bo'lsa,
Chin yurakdan kuyadi u.

U shundayin buyuk zot,
Xalqi uchun suyuk zot.
Shirinsuxan shifokor,
Dilda ezgulik bisyor.



ADABIYOT – SEN ONAM

Adabiyot sevgan fanim,
Kitob o'qib, burro tilim.
Qiziq ertak o'qisam gar,
Bolalardek quv nar dilim.
Qahhor bobom hikoyasin,
Zavqlanaman o'qisam.
Zulfiya-yu Uvaysiydek,
She'r, chistonlar to'qisam.
Alpomish dostonini,
Navoiy «Xamsa»sini.
Oybekning bolaligi,
Bobur g'am-g'ussasini.
Farhod, Shirin qismatin,
Zumradning sarguzashti.
Susambil va Yoriltosh,
O'qishning bordir gashti.
Hamid Olimjon yozgan,
«Oygul bilan Baxtiyor».
Biz yoshlar uni sevir,
O'qiyimiz takror-takror.
Adabiyot – sen onam,
Kitob o'qib tolmasdim.
Senga mehr qo'ymaganda,
Qo'lga qalam olmasdim.

Vatan onami yo ko'zim qarog'i,
Ko'zlarimga to'tiy o, oltin tuprog'i.
Boshim uzra hilpirat tinchlik bayrog'i,
Bo'stonlarga alishmam, shonimsan, Vatan.
Suyangan tayanchim, jonimsan, Vatan!
Adrasingda aks etgan qadim o'tmishing,
Bayramsiz o'tmagay, yurtim, yoz, qishing.
Keksa-yu yoshing shaydir bo'lsa ne'ishing.
Tomitrimda fo'sh urgan, gonimsan, Vatan.
Oltinlarga alishmas, jonimsan, Vatan.
Osmoningda esadur shaboda mayin,
Yurtim ortib borar qadring kun sayin,
Shoir bo'lib ta'rting kuylab o'tayin,
Onamay mo'tabar, nonimsan, Vatan,
Yuragimda yashaysan, jonimsan, Vatan!

KO'ZIM QAROG'IDASAN, VATANI!



RANGLAR SUHBATI

Qizil:
Men muhabbat rangiman,
Gullarda izim qolgan.
Shafaq ham ol rangini,
Aslida mendan olgan.

Moviy:
Musaffo osmon rangi
Deydilar meni moviy.
Zilol suvda rangim bor,
Mening-la go'zal vodiy.

Sariq:
Rangim oltinga qiyos,
Gar e'tibor qilsangiz.
Kuzda bog'lar rangini,
Mendan olar, bilsangiz.

Oq:
Men poklikning ramziman,
Beg'ubor, nafis, oqman.
Dili pok insonlarga,
Men doimo hamrohman.

Yashil:
Go'zal tabiat rangi,
Maysalarning yuziman.
Tabiatning erkasi –
Bahoroyning qiziman.



DADAJONIM

Ishlab sira charchoq bilmas,
To'siqlarni ko'zga ilmas.
Bizni aslo xafa qilmas,
Qatordagi norim dadam,
Pahlavon, shunqorim dadam.

Doim porlab turar ko'zi,
Yaxshilikka chorlar so'zi,
Suyanganim tog'im o'zi,
Qatordagi norim dadam,
Pahlavon, shunqorim dadam.

BUG'DOY SO'ZING

BO'LSIN

SO'Z TA'RIFI

Yozuvchilar bilan uchrashuvdan oldin ustozimiz bizga Muhammad Alining kitobini o'qish uchun berdilar. Bizga «Oq nur» kitobidagi she'rlar juda yoqdi va ulardan yodladik. She'rlardan birida:

«Asli ko'ngil uchun bir og'iz gap bas,
Ul o'zin sezmoq'i mumkin baxtiyor»

misralari bor ekan. Men sinfdoshlarim Odina, Dildora, Ziyod bilan shoirlarimiz va maktabdoshlarim oldida she'r aytdim. So'ng she'rdan shunday xulosaga keldim. «Bug'doy noning bo'lmasa, bug'doy so'zing», ya'ni shirin so'zing bo'lishi kerak ekan. Shoirimiz esa so'zni olamdek sirli, suyuq, chaqmoqdek shu'lavor, buyuk deb ta'riflagan ekanlar. Demak, shoirlarimiz so'zga, tilga e'tiborli bo'lishimizni istar ekanlar. Buni doim yodda tutishga harakat qilamiz.

Shahzoda MIRZAYEVA, 6-«B» sinf o'quvchisi



Inson hayotining eng beg'ubor fasli ona maktabi quchog'ida o'tadi. Bolalikning sir-sinoatiga to'la g'aroyib onlari, har qanday manfaat, ta'madan holi do'stlashuvi, sinfdoshlarning quvnoq, beg'araz hazili-yu shodon kulgulari ilm o'chog'ini yana-da qadrdon, fayzli etadi. Yoshimiz bir joyga borganda ham baribir maktabimizni, suyuqlik ustoz-u sinfdoshlarimizni qo'msayveramiz.

Bundan 35 yil avval o'zim o'qigan poytaxtning Sobir Rahimov tumanidagi 133-maktabda o'tkazilgan yozuvchilar bilan uchrashuv hech yodimdan chiqmaydi.

Ijro etilgan sahna ko'rinishlari, shoirlarimizning jarangdor ovoza butun zalni hayajonga solib o'qigan she'rlari, ularga hayrat bilan tikilib, salobatlari bosgani uchun yonlariga borolmay armonda qolganimiz hamon yodimda. Ancha vaqtgacha

shu taassurotlar olamida yashaganimiz hozir ham tushlarimga kirib chiqadi. Bu uchrashuvni eslashimga sabab, yosh adabiyot muallimlariga kichik bir saboq bo'lishini tilaganimdir. Poytaxtda ulug' shoir va yozuvchilar bilan, viloyatlarda esa mahalliy yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuv, suhbatlar o'tkazishga imkoniyat bor. Biz ushbu imkoniyatlardan foydalansak, o'quvchilarimizning ma'naviy olamini boyitamiz, ruhimizni poklaymiz, ijodga muhabbatni oshiramiz. Komil inson tarbiyasini davlatimiz, dilbandlarimizning ota-onalari bizga ishonib topshirgan ekan, bu ishonchni oqlaylik. O'quvchilarimiz oradan 30-40 yil o'tib ham maktabdagi ijodiy uchrashuvni, o'zlarini ijro etgan rollarni, qadrdon ustozlarini sog'inib yashashsin.

Xuddi shu maqsadda biz ham maktabimizda O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, «Tong yulduzi» gazetasining Bosh muharriri To'lqin Hayit, «Adabiyot» (6-sinf) darsligi muallifi Qunduzxon Husanboyeva bilan adabiy uchrashuv, ma'rifiy suhbat uyushtirdik. Bu uchrashuvdan to'lqinlangan o'quvchilarimiz o'z taassurotlarini inshoda bayon etdilar. E'tiboringizga ulardan ayrimlarini havola etamiz. Zero, aziz ustozlar, ilmga tashna o'quvchilar, Siz ham shunday unutilmas uchrashuv va tadbirlar o'tkazishda faolligni qo'ldan bermang. Shoir yozganidek, dunyo emas, diydor g'animat.



Mahmuda VALIYEVA,
Yunusobod
tumanidagi 274-maktab
muallimasi



«O'LJOY TURKONNI SEVIB QOLDIM»,

– deydi Aziza. U «Vafo malikasi» romanidan O'ljoy Turkon rolini ijro etmoqchi edi. Sinfdoshi Davron buyuk Amir Temur rolini ijro etolmadi, juda hayajonlandi. Shunda Aziza kitobni shartta oldi-da, so'z sehidan o'zi lol qolgan go'zal tasvirni o'qib berdi. Hamma sehrlangandek mazza qilib uni tingladi. Kitob haqidagi taassurotlarini tinglab, biz ham romanni o'qib chiqishga ahd qildik.

Yulduz NABIYEVA,
Fayzulla SHOIBRAGIMOV,
9-«G» sinf
o'quvchilari

«QAFFOL SHOSHIY» KIM?

Maktabimizda tez-tez «Yozuvchi darslari», adiblar bilan uchrashuvlar o'tkazib turiladi. 2007-yilda Xudoyberdi To'xtaboyev, Miraziz A'zam, Tursunboy Adashboyevlar maktabimizda mehmon bo'lishgandi. Bu yil kutubxonamiz yana boyidi. Muhammad Ali «Adabiy sog'inchlar», To'lqin Hayit esa «Qaffol Shoshiy», «Vafo malikasi» kitoblarini taqdim etishdi. Quvonchlisi, To'lqin aka «Qaffol Shoshiy» kitobini yetti savolga javob topgan o'quvchilar, madhiya ijro etgan 60dan ortiq ustoz va maktabdoshlarimizga tarqatdilar. Kitobni o'qib, shuni bilib oldimki, Hazrati Imom Qaffol Shoshiy nomi bilan mashhur joylardan biri shahrimizdagi «Xastimom» maqbarasi ekan. Bu zotning qabri tepasiga Amir Temur buyrug'i bilan dahma ko'tarilganini ham bilib oldik. Qaffol – laqab bo'lib, Shoshiy bobomiz qulflar yasab, qulflar bo'lib, ota-bobolari hunarini ham davom ettirib, bir qator kitoblarni yozgan ekanlar.

Shahzod SHUHRATOV, Zumrad ABDUNABIYEVA,
Hilola G'ANIYEVA, 6-«A» sinf o'quvchilari

«RAMAYANA»NING TARJIMONI

Men hind eposi – «Ramayana»ning ko'p qisimli teleserialini o'zbek tilida qoldirmay ko'rganman. Juda yaxshi film. Uchrashuvdan shuni bilib oldimki, «Ramayana»ni ona tilimizga Muhammad Ali tarjima qilgan ekanlar. Shoir, tarjimon, olim Muhammad Aliga juda havasim keldi. Qaniydi, bizga ham shunday el nazaridagi inson bo'lish nasib etsa. O'zim san'atga qiziqaman, uchrashuvda ham raqs ijro etdim. Kelgusida raqslarim bilan Amerikaga borib, o'zbek san'atini namoyish etsam deyman.

Go'zal TOHIROVA,
8-«V» sinf o'quvchisi

7

KUSHBO'Y KITOBLAR

Amerika nashriyotlaridan biri xushbo'y kitoblarni chiqara boshladi. Ular taratayotgan hid nashr mazmuniga mos keladi. Masalan, dengizlar haqidagi kitobdan tuz va suv o'tlari hidi kelsa, gullarga oid kitoblardan yasmin va siren hid taratadi.

Qadimiy yangi yil ayyomi haqidagi ertaklardan igna bargli daraxt va dolchin hidi aniqydi. Bu bosma bo'yoqlariga xushbo'y moddalarni qo'shish bilan amalga oshirilib, hidlari hech yo'qolmaydi. Kitobxonlarga, ayniqsa, bolalarga bunday nashrlar juda ma'qul kelishi o'z-o'zidan ayon.

ANTIQA KABARCHILAR

Shveysariyaning Denikon shahar hokimiyati binosi oldida bayroq o'rnatiladigan 3 ta baland yog'och qad ko'tarib turibdi. Agar o'ngdagi bayroq ko'tarilsa, shaharda o'g'il bola dunyoga kelganligidan darak beradi. O'rtadagi bayroqning ko'tarilishi bilan shahar aholisi bir qizaloq ko'payganligidan xabar topadi. Chap tomondagi bayroq esa birmuncha kam ko'tariladi. Chunki uning vazifasi egizaklar tug'ilganidan ogoh qilish. Laylak ramzi tushirilgan bu kabarchilar yangi tug'ilgan chaqaloqlarni uch kun sharaflab, hilpirab turadi.

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

SKANVORD

					Hayo	Bug'- doy navi							
Mehnat haqi		Tana qismi				Shahar			Durad- gor asbobi		Tikish ash- yosi		
							Qurol		Sveto- for vatani		Zargar- lik toshi		3,14...
«Yusuf va Zu- layho» muallifi	Boshqir- diston poytaxti			Bitim									Bog'- lovchi
Chavan- dozlik inshooti		Yer o'lcho- vi birirligi			Yirt- qich	Badiiy buyum	Parran- da ozuqasi		Mato pardozi ashyosi		Xush- bo'y su- yuqlik	Ko'rsa- tish olmoshi	
							Sah- na asari						
Shimol daraxti	Yaman valyu- tasi				Parran- da uyasi								Huzur- helovlat
						Musiqi asbobi		Jonivor podasi					Fursat
Oq oiltin	Kuch o'lchovi birirligi							Qirlik may- don			Farobiy		

Foziljon ORIPOV tuzdi

BU AJIB DUNYO

YAXSHI KITOBLAR BOR

ERTAKLAR YAXSHILIKKA YETAKLAR


«Bor ekan-da, yo'q ekan. Qadim zamonda chol bilan kampir bo'lgan ekan», deb boshlanuvchi ertaklarni kim ham yaxshi ko'rmaydi deysiz? Ertak insonni yaxshilikka, yaxshilik ko'chalariga yetaklasa, yomonlardan, yomonliklardan asraydi.

Yaqinda men lotin alifbosidagi rangli, bezakli, sifatli qog'ozlarda bosilgan ertakli kitoblarni qiziqib o'qib chiqdim. Taassurotlarimni uka va singillarim bilan bo'lishdim. Birgalikda ertak qahramonlarining xatti-harakatlari to'g'ri va noto'g'ri ishlarini muhokama qildik.

Ayniqsa, bizlarga kitoblarga chizilgan rangli suratlar juda yoqdi. Chunki biz ertak qahramonlari haqida yana-da keng tasavvurga ega bo'ldik. Hatto rus sinfida tahsil olayotgan jajjigina Kamola singlim ham bu kitoblarni bemalol rus tilida o'qib berdi.


Aytmoqchi, «ART FLEX» nashriyoti tomonidan biz bolalar uchun nashr etilgan «Chalpak yoqqan tun», «Ziyod botir», «Kulsa gul, yig'lasa dur», «Ur, to'qmoq», «Surnaycha» kabi kitobchalarini rus va o'zbek tillarida o'qishingiz mumkin.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
«Istiqlol umidlari» yosh qalamkashlar to'garagi a'zosi




TABRIKLAYMAN!


Oilamiz quvonchi va sevinchi Mohirjon! Seni 3-bahoring bilan chin dildan tabriklayman. Xolajoning ZUHRA.



BUGUNNING



Indira Yoqubova 15 yoshda. 17-maktabning 9-sinf o'quvchisi. 2004-yilda ilk bora o'tkazilgan «Yangi avlod» Bolalar ijodiyoti festivalining tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi g'olibi.



«YANGI AVLOD»LARI

Hayotdagi shiori: doimo qo'limdan kelganicha o'zgalarga yordam berish.

Yoqtirgan fani: rasm va ingliz tili.

Kitobi: Artur Konan Doyl «Sherlok Xolmsning sarguzashtlari» asari.

Filmi: «Karib dengizi qaroqchilari».

Qo'shiqchisi: Rayhon va Avril Lavin.

Sport turi: shaxmat.

Taomi: osh va dimlama.

Rangi: qizil.

Qiziqishlari: bo'sh vaqtda chet tillarini, xususan, fransuz tilini va maqolalar yozishni yoqtiradi.

Eng katta orzusi: festivalda g'olib bo'lganidan so'ng, u o'z ustida yana-da ko'proq ishlashga kirishdi. Chunki kelajakda u mashhur rassom bo'lishni va o'z ijodini jahon sahnasida namoyish qilishni istaydi.

– Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?

– Ingliz, fransuz.

– «Yangi avlod» festivali sizda qanday taassurot qoldirdi?

– Avvalambor, mazkur festivalda g'olib bo'lganim menga katta zavq bag'ishladi. Xususan, ko'pgina iqtidorli yoshlar orasida o'z ijodimni namoyon etish, o'z tengdoshlarim ijodidan bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldim. G'oliblik ijodiy faoliyatimni davom ettirishimda poydevor bo'ldi va men o'z oldimga mahoratli rassom bo'lib yetishishni maqsad qildim.

«Yangi avlod» festivali esa menga ana shu maqsadim sari tashlangan ilk qadam bo'ldi. Men respublikamizning turli chekkalarida irod qiluvchi iqtidorli yoshlarimizni ham ana shu festivalda ishtirok etishlarini va ulkan marralarni zabt etishlarini tilab qolaman.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV, Kamola TOSHPOLATOVA

BILASIZMI?

Kombodja tilining alifbosi dunyodagi eng uzun alifbo bo'lib, unda ko'pmas, ozmas, naq 74 ta harf bor. Bolalarning bu harflarni o'zlashtirishi ancha qiyin kechsa kerak.

Fransuz Gveniyasining ayrim hududlarida tarqalgan taki tili atigi 340 so'zdan iborat.

Eskimos tilida «Qor» ma'nosini ifodalovchi 20 dan ziyod sinonim so'zlar mavjud.

Lotin tili o'lik til hisoblanib, uning so'zlari tibbiyot va fanning turli sohalarida atama sifatida qo'llaniladi. Masalan, «Virus» so'zi aslida lotinchada «Zarur» degan ma'noni bildiradi.

Dunyodagi ko'pgina tillarda «Ona» ma'nosini ifodalovchi so'zlar «M» harfi bilan boshlanadi.

«Orangutan» so'zi ba'zi Afrika tillarida «chakalakzor odami» ma'nosini beradi.

Hozirgi kunda dunyo xalqlari 2976 tilda so'zlashadi.



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
KAMOLOT yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor ESHCHONOV
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzirimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 19010
Buyurtma N: J 4222